

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

5-2023

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

**H.A.Abduvaliyev**

Tabiiy-geografik omillarning aholi joylanishiga ta'siri bo'yicha ayrim xulosalar (Farg'ona vodiysi viloyatlari misolida) ..... 101

**M.X.Otamirzayeva**

Daryo havzalari landshaftlarini tadqiq etishning zamonaviy metodlari ..... 108

---

**ILMIY AXBOROT****M.Abdupattoyev, X.P.Shodmonov**

Sintaktik-stilistik figuralar konvergensiysi ..... 115

**A.A.Mirzayev**

Ibn Al-Arabiyning tasavvufiy qarashlarining asosiy yo'nalishlari va yondashuvlari ..... 119

**J.J.Shodiyev**

Inson qadrini yuksaltirish borasida Abdulqodir Bedilning falsafiy g'oyalari ..... 125

**M.I.Temirova**

F.M.Dostoevskiyning "Aka-uka Karamazovlar" romanida ota va farzand munosabatlari ..... 130

**A.M.Mamajonov**

Katta ma'lumotlar asrida milliy xavfsizlik tadqiqotlari ..... 135

**P.Sh.Kaxramonova**

Badiiy asar tili va ekolingvistika (O'tkir Hoshimovning "Tushda kechgan umrlar" romani misolida) ..... 141

**J.U.Umaraliyeva**

Zavqiy she'riyatida antroponimlarning qo'llanilishi ..... 144

**D.S.Ergasheva**

O'zbek xalq ertaklari asosida vatanparvarlik va do'stlikka o'rgatishning pedagogik strategiyasini takomillashtirish ..... 148

**D.X.G'aniyeva**

"Ta'lim" mikromaydonining paremiologik birliklari ..... 153

**X.X.Abduraxmonov**

Maktab o'quvchilarning yengil atletika mashqlari orqali jismoniy tayyorgarlik darajasini oshirish ..... 157

**G.T.Hojikarimova, Sh.Usarova**

Bo'lajak texnologik ta'lim o'qituvchilarining kompetensiyasini rivojlantirish usullari (tikuvchilik buyumlarini konstruksiyalash va modellashtirish fani misolida) ..... 161

**O.Q.Abdullayev**

Bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarining bilim va ko'nikmalarini rivojlantirish masalalari ..... 164

**J.Sh.Nazarov**

Pedagogik OTM talabalarida sog'lom turmush tarzini rivojlantirish hamda yuksaltirishning amaliyotdagi holati ..... 168

**Sh.F.Latipov**

Madaniy kontekstda lakanaga yondosh hodisalar ..... 173

**D.M.Yuldasheva, Z.I.Usmonova**

Siddiq Mo'min ijodida mehr konseptining ifodalanishi ..... 175

**Sh.M.Robilova**

Qizlarni oilaviy hayotga tayyorlashning psixologik va pedagogik ahamiyati ..... 179

**M.Sotvoldiyeva, G.Mirodiljonova**

Chet tili o'qitish metodikasida zamonaviy usullar ..... 183

**R.R.Abdusattorov**

Bolalarni suzishga o'rgatishda tayyorlov guruhining nazariy va amaliy asoslari ..... 186

**H.Arabboev**

O'quvchilarni ommaviy sport sog'lomlashtirish jarayoniga tayyorlash tizimini takomillashtirish texnologiyasi ..... 192

**F.Xalikov**

Ta'lim tizimida testologiyadan foydalanishning nazariy asoslarini takomillashtirishning ilmiy-pedagogik asoslari ..... 197

**M.I.Yusupova**

Rus tilidagi ommaviy axborot vositalarida "Vatanparvarlik" konseptining ifodalanishi ..... 204

## IBN AL-ARABIYNING TASAVVUFİY QARASHLARINING ASOSIY YO'NALISHLARI VA YONDASHUVLARI

### ОСНОВНЫЕ НАПРАВЛЕНИЯ И ВЗГЛЯДЫ СУФИСТСКИХ ВОЗЗРЕНИЙ ИБН АЛЬ-АРАБИ

### THE MAIN DIRECTIONS AND APPROACHES OF THE MYSTICAL VIEWS OF IBN AL-ARABI

**<sup>1</sup>Mirzayev Axrorjon Azamovich**

<sup>1</sup>Farg'onan politexnika instituti "Ijtimoiy fanlar va sport" kafedrasiga kattha o'qituvchisi

#### *Annotatsiya*

*Ushbu ilmiy maqolada Abu Bakr Muhammad ibn Arabiyning hayoti va ijodi, ta'lomi va dunyoqarashi to'g'risida ma'lumotlar, falsafa va tasavvuf sohalaridagi ilohiy-diniy qarashlari, ilmiy asarlari va ularning mazmun-mohiyatiga qisqacha to'xtalib o'tilgan.*

#### *Annotatsiya*

*Статья содержит информацию о жизни и творчестве, учении и мировоззрении Абу Бакра Мухаммада ибн Араби, его богословские и религиозные взгляды, научные труды и их содержание в области философии и мистики.*

#### *Abstract*

*This scientific article contains information about the life and work, teachings and worldview of Abu Bakr Muhammad ibn Arabi, theological and religious views, scientific works and their content in the field of philosophy and mysticism.*

**Kalit so'zlar:** islam falsafasi, tasavvuf falsafasi, Ulug' Shayx, asketizm, faylasuf, donishmand, tariqatlar, fiqhiy mazhablar, Qohira, Damashq, Bog'dod, rekonkistlar

**Ключевые слова:** Исламская философия, философия суфизма, Великий шейх, аскетизм, философ, мудрец, секты, правовые секты, Каир, Дамаск, Баэдад, реконкисты

**Key words:** Islamic philosophy, philosophy of Sufism, Great Sheikh, asceticism, philosopher, sage, sects, legal sects, Cairo, Damascus, Baghdad, reconquests

## KIRISH

Bugungi kunda tasavvuf falsafasini yangicha yondashuvlar asosida o'rganish, buyuk mutafakkirlarning tasavvufiy asarlarini tadqiq etish, ijtimoiy ahamiyatini keng jamoatchilikka ko'rsatib berish ijtimoiy-gumanitar tadqiqotlar oldidagi dolzarb vazifalardan biri bo'lib turibdi. Ayniqsa O'zbekistonning yangi taraqqiyot strategiyasida ham "buyuk ajdodlarimizning boy ilmiy-ma'naviy merosini keng targ'ib qilish maqsadida yurtimizdan yetishib chiqqan allomalar qalamiga mansub 100 ta asarning xalqchil tarjimasini amalga oshirish, ular asosida ilmiy va ommabop risolalar yaratish, buyuk ajdodlarimizning boy ilmiy merosini chuqur o'rganish va keng targ'ib etish maqsadida O'zbekiston xalqaro islam akademiyasi, Islam sivilizatsiyasi markazi, Imom Buxoriy, Imom Termizi, Imom Moturidiy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazlari faoliyatini qo'llab-quvvatlash"<sup>[1]</sup>ning aniq choratadbirlari belgilab berilishi ham Sharq ilmiy-ma'naviy merosini tadqiq etish dolzarbligini ko'rsatib beradi.

Shu bilan birga, islam falsafasi va ilohiyotshunosligida chuqur nom qozongan, o'z ilmiy izlanishlari va g'oyalari bilan ijtimoiy ongni va dunyoqarashni o'zgartirishga uringan mutafakkirlarning qarashalarini o'rganish, ularning xulosalarini tahlil etish, ijtimoiy ahamiyatini milliy yuksalish jarayoniga olib kirish ustuvor vazifalardan biridir.

Bu borada tasavvuf falsafasining yetuk vakili, diniy-tasavvufiy qarashlarni yangi bosqichga olib chiqqan mutafakkir Ibn al-Arabiyning tasavvufiy qarashlaridagi falsafiy-antropologik jihatlarni tadqiq etish, bu asosida gnoseologik va teologik qarashlarning islam olamidagi rivojlanish tendensiyasini ko'rib chiqish, asrlar davomida o'zaro ta'sirlashgan madaniyat vakili sifatidagi ijtimoiy qarashalarini o'rganish zarurati yuzaga chiqadi. Shunday ekan falsafa tarixi nuqtai nazaridan Ibn al-Arabiyning qarashlarini tadqiq etish, uning tasavvufiy g'oyalarini shakllanishiga ta'sir ko'rsatgan omillarni, ijtimoiy muhit ta'sirini ko'rib chiqish maqsadga muvofiq bo'ladi.

## ADABIYOTLAR TAXLILI VA METODOLOGIYA.

Abu Bakr Muhammad Ibn Arabiy tasavvufiy tasavvurlarni tartibga solingen tizimini yaratdi, shuning uchun uni hozirgacha “ash-shayx al-akbar” (buyuk ustoz) deb atashadi.

Buyuk mutasavvuf, alloma ibn al-Arabi Abu Bakr Muhammad ibn Ali Muhiyiddin 1165 yil 7 avgustda Ispaniya (Andalusiya)ning Mursiya shahrida tavallud topgan. Bu ulug' zot musulmon dunyosi e'tirof etgan arab mutafakkiri va shoir, tasavvuf nazariyasi va amaliyotining asoschilaridan biri, falsafiy dunyoqarashda panteistik yo'naliishning atoqli namoyandasi. Asosan, Ispaniya va shimoliy Afrikada yashagan va faoliyat ko'satgan. Ibn al-Arabi o'rta asr Sharq mutufakkirlari kabi yaqin va o'rta Sharq mamlakatlariga sayohatlar qilgan, tasavvuf ilmining markazlaridan bo'lgan Bog'dod va Damashqning diniy-islomiy masjid-madrasalarida, o'quv yurtlarida bo'lgan, islam dini mohiyati, tasavvuf ilmining ilmiy-nazariy qoidalarini, shart va uslublarini o'rgangan va ayni paytda o'rgatgan ham. O'zi yashagan davrdayoq o'rta asrlar musulmon olamining buyuk mutafakkiri sifatida tanilgan. “Buyuk murabbiy”, “Ulug' Shayx” (ash-Shayx al-Akbar) unvonlariga sazovor bo'lgan. Uning yaratgan ta'lomoti o'z davrdayoq O'rta va Yaqin Sharq mamlakatlarida, asosan, Misr, Suriya, Eron, Iraq, Turkiya, Ispaniya, Shimoliy Afrika shuningdek, Markaziy Osiyo mamlakatlarida keng tarqalgan va mashhur bo'lgan.

Ibn al-Arabiyning shaxsiy hayoti to'g'risida ma'lumotlar yo'q. U boshlang'ich ta'lomni Mursiyada olib, keyinchalik Aleksandriya (Shimoliy Afrika), Qohira, Damashq, Bog'dod kabi shaharlarda o'z davrining alloma mutasavvuflaridan ta'lom-tarbiya olganligi haqida qisqa ma'lumotlar mavjud. Uning ta'lomoti esa O'rta asrlarda, ayniqsa, yangi davrlarda Yevropaning olyi va diniy o'quv yurtlarida o'qitilgan. Bu haqda yangi davrning faylasuf olimlari Sinpoza, Toland kabi faylasuflarning asarlarida ma'lumotlar uchraydi va ular ibn al-Arabiyning falsafiy qarashlarini baholashga, unga tizim berishga harakat qilganlar[2].

Ulug' shayx Ibn al-Arabi barcha mutasavvuf allomalar kabi kamtarona hayot kechirib, butun umrini, aql-idroki va hayotiy faoliyatini islam dini asoslarini, Qur'onni Karim, shariat va hadislarni o'rganish hamda tahlil qilishga bag'ishlagan. Bu ulug' zot dunyoviy va diniy tasavvufiy ilmlarni puxta va asosli bilishiga qaramay, kibru havoga berilmagan, podsholar, yirik amaldorlar va mulkdorlar hadya-ehson qilgan mablag'larni kambag'al bechoralarga, masjid-madrasa talabalariga tarqatib berardi. Bu haqda ayrim rivoyatlar va hikoyatlar paydo bo'lgan. Aytishlaricha, Suriya podshosi uni o'z huzurida qabul qilib, ko'pdan-ko'p in'omlar etib, hatto qasr sifat qilib uy-joy qurib bergen. U bu ehsonni qabul qilib, o'sha zahoti bir gado eshigiga savob so'rab kelganda, “ma ol, Allohdan, uning o'ziidan boshqa iloh narsa yo'q”, - deb kelgan bor mol-mulkini berib yuborgan ekanlar. Ibn Arabiy ruhiy-darvishiylar xislatlarga berilmagan, u islomning barcha ruhiy-irfoniy xususiyatlarini qabul qilgan holda, diniylikni dunyoviylik bilan qo'shib tushuntirib bergen. Ibn al-Arabi Olloh, olam, odam haqida fikr yuritar ekan, uni bitta ma'noda, yagona – yakka birlik, muqaddaslik, mutlaqlik ma'nosida e'tirof etgan.

Ma'lumki, Muhyiddin ibn al-Arabiylar islam tarixida boy ilmiy-adabiy meros qoldirgan eng buyuk mutafakkirlardan biri hisoblanadi. Abdulvahhab Sha'roniy uning asarları sonini 400 dan ortiq[3] deb bilsa, Abdurahmon Jomiy ularning sonini 500 dan ortiq, deydi[4]. "Hadyat ul-orifiy" muallifi esa Ibn al-Arabiyning 475 ta asarini sanab o'tadi[5]. Olmon sharqshunos Karl Brokelmanning aniqlashicha, ularning soni 150 jildni tashkil etadi[6]. Eronlik tasavvufshunos olim Muhsin Jahongir esa Ibn al-Arabiyning 511 ta asarining ro'yxatini keltiradi[7]. Nima bo'lgan taqdirda ham Ibn al-Arabiyan boy ilmiy va adabiy meros qolgan va bu ma'naviy merosning katta bir qismi tasavvuf va irfon, kalom (ilohiyot), falsafa, tafsir, tarix, axloq va fiqh ilmlariga tegishli. Ibn al-Arabi yaxshi shoir ham bo'lgan, ishqiy-irfoniy g'azallar va qit'alaridan tarkib topgan devoni – "Tarjuman ul-ashvoq" bilan shoir sifatida ham katta shuhrat qozongan. Zotan, haqiqiy shoir bo'lmay turib, oriflikning yuksak darajasiga erishish qiyin. Oshiqlik va oriflik, shoirlik va olimlik fazilatlarining uyg'unlashuvini Ibn al-Arabiyning mashhur izdoshlari – Sadriddin Quniyaviy, Faxriddin Iroqiy, Shoh Ne'matulloh Valiy, Abdurahmon Jomiy va Kamoliddin Husayn Xorazmiy va boshqalar misolida ham kuzatish mumkin.

Ibn al-Arabiyning XIII asrgacha yashab, ijod etgan izdoshlari va ixlosmandlarining barchasi turli fiqiy mazhablar va turli irfoniy tariqatlarga mansub bo'laganlar. Shu holatning o'zi ham Ibn al-Arabiyning biron-bir fiqiy va aqidaviy mazhab doirasida chegaralanmaganidan darak beradi. Aks holda turli mazhab va firqalarga mansub bo'lgan orif va mutafakkirlar uning qarashlariga qiziqmagan bo'lur edilar. Yusuf bin Ismoil Nabahoniyning (1265-1350) "Jome'i karomot ul-avliyo"

nomli va Ibn Xallakonning "Vafayot ul-ayon" nomli asarlarida berilgan ma'lumotlarga qaraganda, Ibn al-Arabi molikiya mazhabida bo'lgan[8]. Ammo Ibn al-Arabiyning fiqhiy-kalomiy qarashlari, ayniqsa uning e'tiqod borasidagi katta da'volari bu ma'lumotlarning aksini ko'rsatadi. U molikiya mazhabiga moyillik bildirgan bo'lishi mumkin (chunki XII asrlar va hozirgi davrda ham Shimoliy Afrika musulmonlarining bir qismini molikiylar tashkil etishadi), ammo hech qaysi bir fiqhiy mazhabga va hech qaysi bir kalomiy maktabga ergashmagan. Aksincha, u yuksak darajaga erishgan olim sifatida ijтиҳод qilib, fiqh, kalom va irfonga oid har bir masalaga o'z mavqeidan turib baho bergen. Ammo uning nazdida "ijтиҳод" tushunchasi ahli sunna val-jamoa ulamolariga xos bo'lgan "ijтиҳод"dan (Qur'on, sunnat va ijmo'dan qiyos orqali hukm chiqarish) farq qiladi. U "ijтиҳод" deganda "botiniy qobiliyatlarni rivojlantirish orqali payg'ambarlarga xos bo'lgan ilohiy fayzning kirib kelish jarayonini qabul qilish"[9] deb tushunadi.

Ibn al-Arabiya ta'llimoti uni nafaqat musulmon ilohiyshunosligining buyuk namoyandası sifatida tanitdi, shu bilan birga, butun islom olami ma'naviy madaniyatining rivojlanishiga buyuk hissa bo'ldi. Ibn al-Arabiyning falsafiy dunyoqarashida borliq tushunchasi panteistik ruhda talqin etiladi. Uning fikricha, barcha narsalarning mohiyatida maqsadga muvofiqlik mavjud. Shunday ekan, borliq, olam azaldan uyg'un va belgilangan tizimlar asosida yaratilgan va shakllantirilgan.

Ibn al Arabiyning diniy va ilmiy dunyoqarashi g'oyat ko'p qirrali hamda mukammalligi sababli Yevropa va Sharq mutafakkirlarining diqqat markazida bo'lib kelgan. "Eng ulug' muallim" maqomiga ega bo'lgan bu zotni tasavvufiy ta'llimotini ta'riflashda tadqiqotchilar ikki oqimga bo'linganlar: ular o'tasidagi munozaralar, ikki xil fikr, ikki xil baholash shakllangan. Allomaning tarafdarları "donishmand", "faylasuf", muqaddas va mo'jiza avliyo deb ta'riflasa, boshqlari esa, bid'atchi, savdoyi, xudosiz, dinni o'ldiruvchi deb hisoblaganlar. Bunday qarashlar sharqshunos, islomshunos olimlar tomonidan asossiz, deb qaralsa-da, yuqoridaq aqidaparastlar o'z g'oyalardan chekinmaydilar, ibn al-Arabiyni qoralashda davom etadilar. Ibn al-Arabiyning hayoti va ijodi, ta'llimoti va dunyoqarashi to'g'risida ma'lumotlar turli-tuman va qiziqarli. Bu zot bilimdon va ma'rifatli oilada dunyoga kelganligi adabiyotlarda xabar qilinadi. Otasi Ali ibn Muhammad yuksak ma'naviyatli shaxs bo'lgan. O'sha davrning mashhur allomasi Ibn Rushd (Yevropalik faylasuf tarixchilar lotincha Aveeros deb ataydilar, averroizm ta'llimotiga asos solgan) otasining do'sti bo'lgani bois Ibn al Arabiy hali mo'yabi sabza urmayoq buyuk faylasuf bilan uchrashib, muloqot qilgan. Ibn al Arabiyning keyingi falsafiy qarashlari shakllanishiga ana shu ijodiy muloqotlar ham ta'sir ko'rsatgan bo'lsa ajab emas.

Ibn al Arabiyning falsafa va tasavvuf sohalaridagi ilohiy-diniy qarashlariga o'sha davrning buyuk allomalarining ta'llimotlari kuchli ta'sir o'tkazganini aytib o'tish kerak. Shu ma'noda Ibn al Arabiyni Ibn Rushd bilan bo'lib o'tgan muloqoti haqidagi hikoyatga to'xtalish lozim. Falsafa tarixidan ma'luki, Ibn Rushd (1126-1198) to'la ismi sharifi Ibn Roshd Abul Valid Muhammad ibn Ahmad falsafa, tibbiyat, adabiyot, fiqh-qonunshunoslik bobida beqiyos yuksakliklarga erishgan ensiklopedist olim bo'lgan. U Andalusiya hukmdori Abu Yoqub Yusufning topshirig'i bilan Aristotel asarlariga sharhlar bitgan. Ma'lumot uchun shuni qayd etish kerakki, Arastu asarlariga mukammal sharhlarni Aristoteldan keyingi "ikkinci muallim" nomiga sazovor bo'lgan buyuk alloma Abu Nasr Forobi yozgan va ular arab, ispan, lotin tillariga tarjima qilingan[10].

Ma'lumotni Ibn al-Arabi Andalusianing eng yirik diniy va madaniy Markaziy-Ishbiliya (Sevil) shahrida oladi. Bu vaqtida uning oilasi (1172 y) bu yerdan ko'chib kelgan edi. Bu vaqtida mamlakatda hokimiyat uchun kurashda g'alaba qilgan Almoxadlar dinastiyasidan kelib chiqqan Abu Yaqub Yus ko'lida bo'lib, kelgusida so'fiy mutafakkiri Ibn al-Arabiyning otasiga muhim davlat martabasini beradi. Bu davrda Sevil gullab-yashnaydi, Andalusiyaga eng yaxshi shoirlar, olimlar, vrachlar va musiqachi-ijrochilar, musulmon madaniyatiga talantlari yig'iladi. Asketizm, tartibsizlik, boshboshoqlik bilan dabdabali maxovat, qashshoqlik bilan farovonlik yonma-yon hukm surardi.

Ibn al-Arabi Sevilda yashagan vaqtida muqaddas Qur'oni Karimni jiddiy o'rganadi, musulmonlikni asoslaridan bo'lgan hadislarni yod oladi, bu mashqlar uning eng keksa yoshigacha davom etadi. Musulmon dini uchun majbur bo'lgan bu asoslarni va fanlarni o'zining asarlarida tahlil qilib beradi. Ayni bir vaqtida gullab-yashnab farovon yashaydigan Sevil va unga yaqin shaharlar bostirib kelayotgan xristian Rekonkistlarining olovli taftini sezsa boshlagan edi. 1172 yilda Sevil Portugaliya qirolligining hujumiga duch keldi, bu jangda portugaliya qiroli Alfans Enrikes g'alaba qiladi, musulmonlar armiyasi qattiq mag'lubiyatga uchraydi. Bu musulmon tasavvufi rivojiga salbiy ta'sir ko'rsatdi.

Ibn al-Arabiyning yuqori martabali ulug'lar uni asosan davlat arbobi bo'lib yetishishini kutgan, uni avval Almoxad sultonlarining birining kotibi xizmatiga berishgan, ammo kelgusidagi buyuk tasavvuf olamini bu qoniqtirmaydi, tabiatan aql-idrok va fikr-xayollarga cho'madigan xislatlari uni darveshlik, Xudo yo'lida xizmat qilish yo'lini tanlashga va oxir-oqibatda asketik (tarki dunyo) hayot tarziga kirishga olib kelgan. Ibn al-Arabiyning guvohlik berishicha, u 1184 yilda uzil-kesil so'fiyona hayot yo'liga kirgan uning birinchi ustozi avliyo al-Uraybi bo'lgan: undan bir oz oldin, 1180 yilga yaqin Yevropa va Sharqda dong taratgan arab faylasufi ibn Rushd bilan uchrashgan. Bu hodisa Ispaniyaning Kordova shahrida yuz bergan va bo'lajak so'fiyda katta taassurot qoldirgan. Ibn al-Arabiyning keyingi butun hayoti Andalusiyada mistik tasavvuf ideallariga so'zsiz xizmat qilishga bag'ishlangan. U so'fiylarning hayot tarzi va urf-odatlariga monand ravishda doimo ma'naviy yangilanish yo'llarini izlagan. Ular orasida ilohiyshunoslik ilmini chuqr egallagan so'fiylar bilan birga chala savodga ega bo'lgan, yoki umuman, savodsiz darveshlar ham bo'lgan. yosh so'fiy ularni ajratmagan, aksincha, ma'naviy jihatdan sof, yarim bechora holda kun kechirgan sayyohlarni o'ziga yaqin olgan. O'zining murabbiylari va ular rahbarligida ilm olganligi haqidagi ma'lumotlarni Ibn al-Arabikeyinchalik "Muqaddas ruh" asarida batafsil yozadi. Unda Andalusiya va Shimoliy Afrikada so'fiylar harakati to'g'risida deyarli to'liq yozilgan. Bu vaqtida yosh bo'lgan, endigina tasavvuf yo'lini tanlagan Ibn al-Arabi 9-12 asrlarda ko'plab mashhur so'fiylar haqida, musulmon mistiklari haqida xabar beradi: al-Muxasibi (vafoti 857yil), as-Sulami (vafoti 1021 yil), al-Kushayri (vafoti 1072), al-G'azzoliy (vafoti 1111yil), o'zining vatandoshlari Ibn Masarri (vafoti 931), Ibn al-Arif (vafoti 1141 yil), Ibn Barradjon (vafoti 1141 yil) va boshqalarning asarlarini o'rganganligini yozadi. Bu davrda yosh so'fiy qadimgi grek falsafasi va neoplaton falsafasi to'g'risidagina emas, arab musulmon falsafasi to'g'risida ham g'ira-shira, tumanli tasavvurga ega bo'lgan. Uning asarlarida o'sha davrning buyuk faylasuflari al-Kindiy, al-Forobi, Ibn Sino, Ibn Bajja, Ibn Tufayl nomlari uchramaydi. Uning asarlarida yunon faylasuflaridan Platon va Aristotel nomlari juda kam uchraydi va ularning asarlariga sharhlar yuzaki berilgan.

Ibn al-Arabiyning g'oyaviy-falsafiy ta'limotini asosiy yo'nalishini kuzatish shuni ko'rsatadiki, unga ko'proq o'sha davrda o'zaro shiddatli kurash olib borgan ikki ilohiyshunoslik maktablari – mo'taziliylar va ash'ariylar namoyondalarining asarlari ma'lum bo'lgan. Mo'taziliylar (ajralib chiqqanlar) ratsionalizm, aqlni birinchi o'ringa qo'ygan bo'lsa, ash'ariy (Hasan ibn Ash'ariy)lar kalom ilmini (mutakallimlar) asosiy deb bilganlar. Ibn al-Arabi har ikki maktabning qarashlarini to'la qabul qila olmagan. Har ikki tomon uchun ham aqlni, ham aqliy dalilni absolyutlashtiradi, aslida ular Ollohni va borliqni bilishning taxminini xulosalariga tayanadi, demak, har ikki ilohiyshunoslik maktab vakillarining adashishi bilim olishning ratsionalistik metodini mutlaqlashtirishdadir, deb hisoblaydi Ibn al-Arabi.

Keksalik asoratlarini his qilgan ibn al-Arabi Damashq shahrida muqim qolishga qaror qiladi. Ma'lumotlarga qaraganda, u 1222-1223-yillardan boshlab, Suriyadan tashqariga chiqmagan. Damashqda unga diniy arboblar boshlig'i Bonu Zakiy homiylik qiladi. Unga 30 dirham miqdorda nafaqa tayinlaydi. Bu Ibn al-Arabiya qo'il keladi, chunki bu vaqtga kelib, katta oilaga, kamida 2ta xotinga, ikki o'g'il, noma'lum sondagi qizlar va nevaralarga ega edi. Bundan tashqari, o'nlab toliblar ham uning qaramog'ida bo'lgan[11]. 1229 yilda ulug' ustozga payg'ambarning o'zidan "donishmandlik" to'g'risida topshiriq keladi. Ibn al-Arabiyning eng ommalashgan asarlari shu tarzda dunyoga keladi. Bu asarlar mazmunga va g'oyalarga boyligi balan zamondoshlari va kelajak avlodda katta taassurot va qiziqish uyg'otadi. Shuning uchun ham tasavvuf haqida ma'lumotga ega bo'lgan taqvodor yoki so'fiylar bu asarlar haqida bilganlar.

Albatta, diniy dunyoqarashlar xilma-xil bo'lgan davrda Ibn al-Arabiyning asarlarini ham tekis, kurashsiz tarzda din peshvolari tomonidan oson qabul qilinmagan. Bu asar musulmon sivilizatsiyasi tarixida shiddatli tortishuvlarga sabab bo'ldi. Unga ko'plab sharhlar yozilgan. Shuni ta'kidlash kerakki, Ibn al-Arabi yaqin vaqtлага qadar so'fizm ijodi va merosi bilan shug'ullanuvchi g'arb shaqshunoslarning eng mahsuldor obyekti bo'lib kelgan. Chunki uning ta'limoti din va e'tiqodning mohiyati g'oya, o'tkir zehn va zakovat bilan ochib berilgan, ularning chuqr ichki mohiyati lo'nda va aniq tahlili qilingan.

Tasavvuf ilmining asoschilaridan biri buyuk muallim Ibn al-Arabi 1240-yilda qarindoshurug'lari, do'stlari, yaqinlari davrasida vafot etadi va Damashq yaqinidagi shaharchalaridan biri as-Salihiyga dafn etilgan. Usmoniyalar imperiyasi davrida uning qabri ustiga mahobatli maqbara

qurilgan. Hozirgacha buyuk ustozning hurmatini bajo keltirib, uning muxlislari sharq va g'arb mamlakatlaridan ruhini shod etish uchun ziyoratga keladilar.

Ibn Arabiyning "al-Futuxat al-Makkiyya" va "Fusus al-Hikam" asarlari eng ahamiyatli deb tan olingan, ularning tahlili natijasida tasavvuf falsafasi haqida to'g'ri tasavvurga kelish mumkin. Boshqa manbalar (masalan, Jaloliddin Rumiyning mashhur "Ma'naviy Masnaviy"si) allegorik, she'riy tarzda bayon etilib, ularni falsafiy talqinini amalga oshirish murakkabdir.

Ibn al-Arabiyning tasavvufiy ta'lomitining falsafiy antropologiyaga asoslanadi. Bu g'oyaga ko'ra olamning barpo etilishining asosiy sababi bu – inson. Bu g'oya barcha so'fiylar fikri va ruhining manbai bo'lib kelgan. Buyuk shayx Ibn al-Arabi ham ushbu g'oyaga sodiq qolgan holda inson va uning oxirgi maqsadi koinotni yaratilishini bosh yo'nalishi, bo'lgan degan g'oyani isbotlashga intiladi. Ya'ni, hozirgi fan bilan tushunganda Olloh va koinot antroform tarzida, ya'ni Olloh-xudoni odam shaklida namoyon bo'llishidan iborat, inson bir vaqtning o'zida Ollohga va yaratilgan olamga o'xshaydi, demak, inson tomonidan o'z-o'zini anglash jarayonida Olloh va koinotni bilib olishi mumkin, degan so'fizm ta'lomitini ilgari suradi.

Ibn al-Arabi "Muhitni tasavvur etish" nomli asarida musulmon (umuman barcha dinlarda bo'lgan kabi) ilohiyatshunosligining aqliy (mantiqiy) va moddiy olamning o'zaro munosabati masalasiga jiddiy to'xtaladi. Ruhiy va moddiy dunyoni o'zaro munosabati masalasi o'rta asrlarda falsafiy tafakkurning qizg'in mavzusiga aylangan edi. Ushbu masala yuzasidan nominalistlar va realistlar o'tasida g'oyaviy kurash borar edi. Ibn al-Arabi realistlar tomonida bo'lib, "narsalar azal-boshdan Olloh ruhi ilmida mayjud bo'lgan va real mohiyat sifatida yuzaga chiqqan" degan fikrni tarafdori bo'lgan. Xudoning xohishi va irodasi bilan aqliy (sukut) va voqeiy holatiga o'tkazilgan va aslar davomida o'z xususiyatiga ega bo'lib borgan[12]. Ushbu fikrlardan ayon bo'ladiki, koinot azaldan Xudo, ilohiy bilim doirasida makon-u voqelikda namoyon bo'lgan. Garchi olam Olloh, odam xaqidagi qadimgi yunonlar va xristian dinida ilgari surilgan g'oyalar bilan o'xshash bo'lganda Ibn al-Arabi bu masalani "Muhammad mohiyati", "Mohiyatlarning mohiyati" ya'ni "G'oyalarning g'oyasi", "Uchinchi narsa", "Buringi asos (substansiya)" kabi tushunchalar vositasida o'z fikrini asoslaydi. Ayrim holatlarda buyuk shayx to'g'ridan to'g'ri "Olloh so'zi" (kalomi) iborasini qo'llaydi va islomiy mazmunni kuchaytiradi.

Xususan, o'rta asrlarda yashab ijod qilgan xristian va musulmon mutafakkirlarini mohiyatan bir xil bo'lgan masala, bitta masala Olloh va olam, olam-odam o'tasidagi munosabat to'lqinlantirib kelgan. Shuningdek, Ibn al-Arabi ham bu universal muammoni yechishga harakat qiladi va yaratuvchining mohiyatini ifodalashga va taxil qilishga kirishadi. Buyuk ustoz borliqni "Uchinchi narsa" deb nomlaydi. Bu tushuncha musulmon ilohiyoti ta'lomitidan birmuncha farq qiladi :

- a) narsa o'zida yashovchi ya'ni o'z borlig'ida o'ziga yetarli bo'lgan borliq;
- b) o'zida – o'zi yashovchi borliq o'zidan tashqaridagi kuchga extiyojmand ekanligi ya'ni Ollohga extiyoji. Bu tushunchaning bir qismiga o'z-o'zi bilan yashovchi borliq, demak narsa o'zida ilohiy absolyut (mutlaqlilik)ning o'zi. Ikkinci qismiga barcha yaratilgan borliq kiradi, o'zini mavjudligini ta'minlashga extiyoj. Majbur bolgan narsa o'zida, demak Ollohga extiyoj, zaruriyat. Ibn al-Arabiyning bu qarashlari bir jihatdan Platonning mutlaq g'oyasiga yaqin kelsa, ikkinchi jihatdan birinchi materiyani ifodalasa, uchinchi jihatdan ilohiy (ayni bir vaqtda insoniy) ong sifatida harakterlanadi.

E'tiborli shundaki, mumtoz muallim ancha murakkab va qabul qilish uchun ancha qiyin bo'lgan yuqorida fikrlarini jadvallar va sxemalar yordamida izohlashga harakat qiladi. Uning falsafiy-mantiqiy usuli metafizik - abstrakt mantiqiy muloqtdan sezdirmagan xolda ilohiyotga o'tish, shundan so'ng mifalogik she'riyatga o'tadi. Ibn al-Arabiyning panteistik yo'li huddi shu yerda materiyani metafizik tarzda tushunish va Olloh yaratuvchi ekanini e'tirof etishda namoyon bo'ladi .Bu jihatdan uning "Atrof mohiyatning tasavvuri" nomli asarida bayon etilgan falsafiy fikr-muloxazalar muhim ahamiyatga ega. Bu asarda yaratilgan olam mohiyati rivoyatlar yordamida tushuntiriladi. Uning rivoyatiga ko'ra, insonni asrovchi farishtalar o'zlariga ishonib topshirilgan kalit yordamida ochishi mumkin bo'lgan eshikni izlaydi va olam jumboqlarini yechishga urinadi.

Ibn al-Arabiyning olam haqidagi taxmini va hayollari, ayniqsa, kosmogoniya to'g'risidagi qarashlarida turli darajadagi farishtalar va daholar muhim o'rinn egallaydi. Ular koinotda "hayotiy kuchlar" bo'lib uni boshqaradi. Xuddi shu tarzda bir qator o'xshash ilohiy nomlar keltiriladi, ular asosan, Qur'on Karim sura va oyatlaridan olingan. Shuningdek, uning "Birinchi aql" asarini tadqiqotchilar Qur'ondag'i "Pir", "Umumiyl ruh" kabi ilohiy tushunchalar bilan oydinlashtiradi.

Amalda, Ibn al-Arabi o'zining barcha diniy va astrologik nazariyalarini Qur'oni Karim va hadislardan keltirilgan dalillar bilan mustahkamlab boradi. Bu xol ulug' shayxning Qur'on va ilohiy naqlarni talqin etishning o'ziga xos xususiyatiga ega ekanligini bildiradi, ularga Olloh tomonidan kiritilgan barcha ma'no mohiyatni oshib berishni ko'zda tutadi. Buyuk muallim ustozning fikricha, Qur'on va o'ta nisbatan ozroq darajada bo'lsa-da afsona, naql, rivoyatlar, Ollohnning nutqi, so'zi sifatida xaqiqatni so'zlarda qotib qolgan ifodasi, ilohiy bilimlardan inson tushunchasiga olib tashlanganidir. Faqat ana shu xaqiqatni to'la ravishda anglasagina inson narsalarni mohiyatiga kirishi va ko'rindigan hodisalardan uzoqlashishi ruhiy qalb ko'zları bilan ko'rishi mumkin. Ammo, bu avliyolik nozil qilingan insongagina beriladi.

### XULOSA

Xulosa qilganda, Ibn al-Arabi asarlaridagi ilohiy mohiyat va hisobsiz xaqiqatlar o'rtasidigi ruh va materiya, birlamchi asos va uning uncha muhim bo'limgan xususiyatlari borliqning turli darajalari ortasidagi munosabatlar, yaratilgan olamni yashashi va harakatining ro'li to'g'risidagi g'oyalilar aks ettirilgan. Koinotni yaratilish va borlig'i koordinatasi afsonaviy emas, to'la voqelik tarzida tasvirlashi, u nafaqat subyektiv ong balki obyektiv voqelik va ular Ibn al-Arabi xayolotida doimo ko'rinish to'g'risidagi fikrlari hayratga soladi. Bu o'rinda ulug' shayxning hayolot, tasavvur to'g'risidagi fikrlari yana ham muhim. Uning ulug' tasavvur xissiy idrok etish kabi voqedir. Payg'ambar va Olloh ato etgan oliy ruh, ong va idrok etgan kishigina atrof – muhit, moddiy dunyodan voz kechishi mumkin. Tasavvur sohasida ruhiy-ma'naviy mohiyat, xissiyot ko'rinish mohiyatini oladi, moddiy narsalar esa aksincha ilohiylik kasb etadi. Xullas, boshqachaciga aytganda olam Ollohnning o'zini-o'zi tasavvur etish, shu ma'noda u mustaqillik va voqelikdan mahrum etilgan.

### ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Ўзбекистон Республикаси Президенти 2022 йил 28 январь «2022-2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида”ги ПФ-60-сон Фармони. // lex.uz.
2. Степанянц М.Т. Философение аспекти суфизма.Москва.:Наука, 1980, -С. 8-28.
3. Абдулваҳҳоб Шаъроний. Ал-явоқит в-ал-жавоҳир. 1-ж. –Миср, 1343. -С. 8.
4. Абдураҳмони Жомий. Нафаҳот ул-унс. –Техрон, 1337, саҳ. 546.
5. Исломил Пашшо Бағдодий. Ҳадят ул-орифийн. 2-ж. –Истамбул, 1951. -С. 114-121.
6. Arabischen Litteratur, Vol. 1. p. 571-582.
7. Мұхсин Жаҳонгирий. Мұхайдиддин ибн ал-Арабий чөхраи баржастай ирфони исломий, -С. 108-134.
8. Юсуф бин Исломил Набаҳоний. Жомиъи каромот ул-авлиё. -Миср. 1381, 1-жилд, -С. 200; Ибн Халлакон Аҳмад бин Мұхаммад. Вафаёт ул-аъён. -Байрут. 1965, 7-жилд, -С. 11.
9. Ибн ал-Арабий. Футухот ул-Маккия. 3-жилд. -Миср. 1392, -С. 270.
10. Хайруллаев М.М. Уйғониш даври ва Шарқ мутафаккири, -Тошкент.: Фан, 1971. –Б. 145.
11. Ҳомиджон Ҳомидий. Тасаввuf алломалари. –Тошкент.: Шарқ, 2004, -Б. 22.
12. Ибн ал-Араби. Мекканские откровения. Перевод А.Д. Кныша. Санкт-Петербург, 1995. С.25.